

**OILAVIY TARBIYADA MEDIA SAVODXONLIK KO'NIKMASINI
RIVOJLANTIRISH .**

Arobova Shohsanam Akram qizi

*ADPI mustaqil ilmiy tadqiqotchisi Andijon shahar 7-umumiy o'rta ta'lif
maktabining boshlang'ich ta'lif o'qituvchisi.*

Anotatsiya: Ushbu maqolada ta'lif-tarbiyaga oid olimlar fikrlari, oila tarbiyasi, media savodxonlik, media shakllari, oilada media savodxonlik ko'nikmalarini rovojlantrish uchun tavsiyalar haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: media savodxonlik, media shakllari, tarbiya, odam, axborot, tahlil, ko'nikmalar, ishonchli, oila, ota-on, bola.

Анатасия: В данной статье рассказывается о мнениях ученых об образовании, семейном воспитании, медиаграмотности, медиаформах, а также рекомендациях по развитию навыков медиаграмотности в семье.

Ключевые слова: медиаграмотность, медиаформы, образование, человек, информация, анализ, навыки, надежность, семья, родитель, ребенок.

Annotation: This article discusses the views of educational scholars, family upbringing, media literacy, media forms, and recommendations for developing media literacy skills in the family.

Keywords: media literacy, media forms, education, person, information, analysis, skills, trust, family, parents, child.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev Tarbiya haqidagi nutqlarida "Bizni hamisha o'ylantirib keladigan yana bir muhim masala – bu yoshlarimizning odob-axloqi, yurish-turishi, bir so'z bilan aytganda, dunyoqarashi bilan bog'liq. Bugun zamon shiddat bilan o'zgaryapti. Bu o'zgarishlarni hammadan ham ko'proq his etadigan kim – yoshlar. Mayli, yoshlar o'z davrining talablari bilan uyg'un bo'lsin. Lekin ayni paytda o'zligini ham unutmasin. Biz kimmiz, qanday ulug' zotlarning avlodimiz, degan da'vat ularning qalbida doimo aks-sado berib, o'zligiga sodiq qolishga undab tursin. Bunga nimaning hisobidan erishamiz? Tarbiya, tarbiya va faqat tarbiya hisobidan". {1}

Insoniyat faoliyatining asosiy turi sifatida tarbiyaning yuzaga kelishi mil.av. 40-35 ming yilliklarda zamonaviy qiyofadagi odamlar {«homo sapiens»- «ongli odam»)ning paydo bo'lishi bilan bog'liq.

Forobiy birinchi bo'lib ta'lif va tarbiyaga ta'rif bergan olimdir: Ta'lif - so'z va o'rganish bilangina amalga oshiriladi. Tarbiya - esa amaliyot, ish-tajriba bilan amalga oshiriladi.

• Ta'lism-tarbiya ikki yo'l bilan amalga oshiriladi: qanoatbaxsh, ilhomlantiruvchi so'zlar va majbur etish.

• Har kimki ilm, hikmatni desa, uni yoshligidan boshlasin, so'zining ustidan chiqsin, yomon ishlardan saqlanadigan bo'lsin, hiyonat, makr va hiylalardan uzoq bo'lsin, diyonatli bo'lsin, ilm va ahli ilmdan mol-dunyosini ayamasin.

• Inson yaxshi tarbiya ko'rmangan va turmushda yaxshi tajriba orttirmagan bo'lsa, u ko'p narsalarni nazarga ilmay va ulardan jirkanadi. Bunday narsalar unga noo'rin bo'lib ko'ringan narsalar zaruriy bo'lib chiqadi.{2}

Jaloliddin Davoniying axloqiy qarashlari. Davoniy insoniy fazilatlami to'rtga boladi: donolik,adolat, shijoat, iffat. Davoniy g'azabni eng og'ir ruhiy kasallik deydi. G'azab kishining katta nuqsoni, kamchiligi, aqlsizligidir, agar aql g'azab va hissiyotga bo'ysunsa, kishi hayvon darajasiga tushib qolishi mumkin, chunki hayvonning aqli bolmaganligi tufayli u g'azab va quvvatini o'ziga buysundira olmaydi. Inson aqli bo'la turib g'azabni buysundira olmasa, buni hech qachon kechirish mumkin emas.{6}

Asosiy. Oila — an'anaviy tarbiyaning asosiy instituti bo'lib hisoblanadi. Bola yoshlik davrida oilada olgan ta'lism-tarbiyasini butun umri davomida saqlab qoladi. Bola hayotini asosiy qismini oilada o'tkazadi, o'zining ta'sir kuchiga ko'ra hech qanday tarbiya vositasi oila bilan bellasha olmaydi. Oilada bola shaxsini asoslari tarkib topdiriladi, mакtabga borganda esa bola shaxs sifatida shakllangan bo'ladi. Oila bolalarga insoniy va salbiy ta'sir etish omili bo'lishi mumkin. Bola shaxsiga ijobiy ta'sir etish shundan iboratki, oilada bolaga eng yaqin insonlardan - ota-ona-buvi-buva aka-opalardan tashqari hech kim ulardek bolani yaxshi ko'rib, u haqida qayg'urmaydi. Shu bilan birga bola shaxsini shakllantirishga, ularga tarbiya berishda oila salbiy ta'sir ham ko'rsatishi mumkin.

Oila — bu o'ziga xos jamoadir, u tarbiyada asosiy o'ringa egadir. Hozir XXI asr texnologiyalar asri bo'lgani tufayli, telefon, kompyuter, smartfonsiz hayotni tessuvvur etib bo'lmaydi. Oila bu tarbiya o'chog'i hisoblanadi. Biz o'zimiz sahar uyg'onar ekanmiz, darrov telefonimizni qidirishdan boshlaymiz. Uyimizda katta soat ilinib turadi, lekin unga emas, telefondagagi soatga qaraymiz. boqchada yoki boshlang'ich sinfda o'qiydan farzandimiz ham yonimizga kelib keling oyi birga o'ynaymiz kitob o'qib bering demaydi, telefoningizni berib turing deydi, beramiz sababi ishlarimizni qilishimiz kerak, bolamiz o'sha telefon bilan ovunadi-bo'ldi. Internetni yoqishi bilan ko'proq youtobu kiradi unda ishonchli-ishonchsiz har hil vediolar ko'radi.

Eng achinarlisi shuki hozirgi yoshlarimiz o'zbek mintaletetiga nomunosib vaynlar olishlari ko'payib ketmoqda. Mashxur bo'lish uchun ham hatto uyatli behayo xatarli vediolar olishga qiziqib qolishgan asosan bu o'smir yoshlar o'rtasida ko'p uchramoqda. Ota-onasi bundan bexabar ular farzandini telefonini bir tekshirmaydilar. Aksariyat ota-onalar hozirgi zamonaviy telefonlarni o'zlari yaxshi tushinmaganidadir, chunki o'zlari media savodxonlik tushunchalari haqida yaxshi bilimga emaslar. Oila tarbiyasidagi bolalar hayotini to'g'ri uyushtirish, ularning vaqtidan to'g'ri va unumli

foydalanihning asosiy garovi ekanligini ota-onalar o‘z farzandlariga tushuntirishlari lozim.

Oila tarbiyasi masalalari bo‘yicha maxsus Abu Ali Ibn Sino «Tadbir al-manozil» nomli asarini yozgan. Unda olim otaonaning bolalami tarbiyalashdagi vazifalarini yoritgan. Asarda oilada ota-onaning vazifasi va burchiga va oila munosabatlariga to‘xtalar ekan, ayniqsa, ota-onalaming oilada mehnatsevarligi bilan farzandlarini ham kasb va hunarga o‘rgatish borasida muhim fikrlar bayon etadi. Ibn Sino tarbiyaviy qarashlarida oila va oilaviy masalalariga keng o‘rin berilgan.

Ota oilada o‘z farzandlariga har tomonlama yurishturishda, nutq odobida, so‘z madaniyatida, o‘zaro muomala jarayonida eng muhimi amaliy ish faoliyatida to‘g‘rilik va haqqoniylik, samimiylilikka namuna bo‘lmog‘i kerak. Oilada farzand tarbiyasining to‘g‘ri yo‘lga qo‘yishning asosiy vositasi uning ma’naviy olamida e’tiqodni shakllantirish, deb hisoblagan edi olim.

Yusuf Xos Hojib «Qudatg‘u bilig» asarida oilaviy maishiy turmush muammolariga ham katta e’tibor beradi. U kishilami uylanib, oila qurishidan boshlab, farzand tarbiya etish, oilaning moddiy ta’minotini yuritishgacha bo‘lgan eng zaruriy vazifalarini birma bir bayon etadi. Ota-onalar nazoratida bo‘lgan bolaning mas’uliyat hissi rivoj topadi. Shu sababli ham bola tarbiyasida ota-onaning mavqeyi alohida ahamiyatga egadir.

Ular tanlagan to‘g‘ri yo‘l farzandlarining kelajagi, kamoloti uchun nihoyatda muhimdir. Jamiyatda farzandlari hulq atvoriga qarab ota-onalariga baho berishni aytib ulami ogohlantiradi. Mirzo Ulug‘bekning qarashlarida bolaning bilim olishiga bo‘lgan qiziqishi havasini oshirishda u tarbiyalana-yotgan muhit muhim o‘rin egallaydi. Shunday ekan, avvalambor, bola tarbiyasida oila muhitini to‘g‘ri tashkil qilish darkor.{4.8}

Unsurul maoniy Kaykovus «Qobusnama» pandnomasida o‘z farzanding sening haqingda qanday bo‘lishini tilasang, sen ham ota-onang haqida shunday bo‘lgil, nedinkim sen ota-onang haqida ne ish qilsang, farzanding ham sening haqingda shundoq ish qilur, chunki farzand mevaga, ota-ona mevali daraxtga o‘xshaydir» deb yoshlami ota-onasini hurmat qilishga e’zozlashga, mehr-oqibatli bo‘lishga da’vat etadi. Ota-ona o‘z farzandi uchun hatto o‘limga ham tayyorligini ta’kidlaydi. Har bir farzand oqil va dono bo‘lsa, ota-ona, mehr-muhabbatini ado etmakdin bosh tortmaydi.

Muhammad Sodiq Koshg‘ariy «Odob as-solixan» asarida uylanadigan yigit nikohdan oldin uylanmoqchi bo‘lgan qizini ko‘rmog‘i, uylanadigan qizining bokira bo‘lmog‘i hamda to‘rt narsa umrda, qomatda, molda va nasabda yerdan past va to‘rt narsada, husnda va jamolda, hulqda, adabda va iffatda yerdan yuqori boiishi zarurligini, ta’kidlaydi. Bu fikr turmushda tinch va totuv yashash, oilada er-xotin munosabatlarida katta ahamiyatga ega.

Davoniying fikricha: «Ota-ona bolaga jamiyatda mavjud bo‘lgan hulq-odob qoidalarini singdirishga, yurish-turishga, yeyish-ichish, o‘z qilmishi uchun mas’uliyatni

sezish, shirinsuxan bo'lish, yaxshilik, ezzulik kabi axloq qoidalarini egallashiga yordam berishi lozim». Rudakiy oilada bola tarbiyasi, yosh avlod kamolotda ota-onaning burchi haqida ham muhim fikrlami ilgari suradi. Chunonchi, ruboiylari zamonasidagi aksariyat odamlar, hatto ma'rifatli zotlar ham farzardlarining tarbiyasiga e'tiborsizlik bilan qarab, donishmandning bolasi johil bo'lib qolayotganligidan afsuslanadi. Buning uchun oila muhitida ota-onalar bilan bolalar o'rtasida o'zaro hurmat bo'lgandagina tarbiyada yaxshi natijalarga erishi mumkin bo'ladi. Inson tug'ilgan paytidanoq tarbiyaga muhtojdir. Uning ilk tarbiyachilari albatta, ota-onasidir.

Oilada farzand dunyoga kelgandan boshlab oilaning jamiyat oldida javobgarligi kundan kunga ortib boradi. Chunki o'sib kelayotgan avlodning taqdiri ana shu muammoning hal qilinishi bilan uzviy ravishda chambarchas bog'langandir.{4.10}

Abdurauf Fitrat 1916-yilda «Oila» nomli falsafiy asarini yozgan bo'lib, ,unda oilaviy hayotni islohotidan bahs yuritilgan va adib najot yo'llarini axtarib xalqlaming umuminsoniy qardoshlik g'oyasini targ'ib etgan. Fitrat oilani ijtimoiy vazifalari deb, «Avlod tarbiyasi», «Fikriy tarbiya», «Axloqiy tarbiya» kabi qismlarga bo'ladi. Insonning ma'naviy va aqliy xislatlarini, asosan, uning olgan tarbiyasi, yashagan muhiti belgilaydi, deb hisoblagan. Agar, yaxshi tarbiya insonning eng qimmatli boyligi bo'lsa, noto'g'ri tarbiya uning uchun chinakamiga baxtsizlikka, hatto, halokaitga aylanishini uqtirgan. Shuning uchun maktab tarbiyasi bilan bir qatorda oila tarbiyasiga ham katta ahamiyat bergen. Oilada to'g'ri yo'lga qo'yilgan tarbiya maktab uchun katta mакtabdir va aksincha, oilada tegishli tarbiya ishlari olib borilmasa, bu holda maktabning ta'limtarbiya ishini juda qiyinlashtirib qo'yadi. Oilada bola bilan tarbiyachi o'rtasida juda yaqin va samimiymunosabat o'zining tabiiyligi va oddiyligi, mazmundorligi, iliqligi, hech qanday rasmiyatichilikning yo'qligi bilan ajralib turishi lozim.

Oila odamzod o'zining dastlabki ijtimoiy yo'lini bosib o'tadigan eng muhim sohadir. Bunday oilada ota-onalar bilan bolalar o'rtasida ma'lum ma'noda izzat hurmat va qildan ishonch kabi chegara bo'ladi. Oilada bolalaming o'zga bir oilada yotib qolishiga hech bir holda sira yo'l qo'ymasligi kerak, bola yotib qoladigan joy aniq tanish va ishonchli bo'lgan taqdirdagina istisno bo'lishi mumkin. Oilada farzand yaxshi tarbiyalansa, ota-onaning baxti, yomon farzand esa ota-onaga kulfat keltiradi.

Oila va jamoatchilik hamkorligi yosh avlodni muvaffaqiyatli tarbiyalashning asosiy shartlaridan biridir, ota-onalari e'tiboriga oladigan alohida ahamiyat berish kerak bo'lgan narsa bolani yoshligidan boshlab biror-bir ishga o'rgatish, unga o'ziga xos yumush berib, ishga odatlantirishdir.

Vaholanki, bola ham ish o'rganadi ham jamiyatda, oilada o'z o'rnini topishga harakat qiladi. Bolada mehnatga munosabat, ota-onasiga munosabati, oila a'zolariga nisbatan fikri, dunyoqarashi o'zgaradi. Oila boshlig'i ota-onalari bola tarbiyasi haqida yetarlicha amaliy va nazariy bilimlarga ega bo'lishi kerak.

Agar ularda yetarlicha bilim ko'nikma va malaka bo'lmasa u oila a'zosiga ya'ni farzandlariga yaxshi tarbiya bera olmaydi. Oiladagi yomon tarbiya faqat oilaning o'ziga xos bo'lmasdan balki qo'ni-qo'shni va mahallalardagi taibiyaga ham salbiy ta'sir qiladi.{4.11}

Media savodxonlik va axborot madaniyati insonlarga turli media shakllarini va xabarlarni tahlil qilish, baholash va yaratishga imkon beradigan ko'nikmalar to'plamidir. Qaysi manba ishonchli, qaysi manbada noto'g'ri xabarlar tarqalishi mumkinligini media savodxonligi yuqori bo'lgan odam osongina sezishi mumkin bo'ladi. Media savodxonlik — insonlarga turli media shakllarini va xabarlarni tahlil qilish, baholash va yaratishga imkon beradigan ko'nikmalar to'plamidir.{5.5} Qaysi manba ishonchli, qaysi manbada noto'g'ri xabarlar tarqalishi mumkinligini media savodxonligi yuqori bo'lgan odam osongina sezishi mumkin bo'ladi.

Boshqacha qilib aytganda, media savodxonlik — bu tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini ommaviy axborot vositalari orqali uzatiladigan xabarlar va belgilarga qo'llash qobiliyati. Binobarin, dunyodagi barcha voqeа va hodisalar u yoki bu tarixiy manbagao'ziga xos tarzda oydinlik kiritishi va ayni paytda muhim tarixiy ma'lumotlarning ochilishi uchun sabab bo'lishi mumkin. O'tmisht tarixi, ijtimoiy va gumanitar fanlarni o'rghanishda falsafa, madaniyatshunoslik, etnologiya, etnografiya, san'atshunoslik, sotsialogiya va boshqa shu kabi fanlar yetakchilik qilmoqda. Biroq, mohiyatiga ko'ra, bu fan tarixinining muhim tarkibiy qismidir. Tarixiy manbalarga murojaat qiladigan bo'lsak, ibridoiy odam o'z fikrini o'zi o'ylab topgan turli belgilar va tasvirlar yordamida ifodalashga harakat qilganligini bilib olamiz. Inson hayotida muhim ahamiyatga ega bo'lgan til, yozuv va muloqot shakli shu tarzda paydo bo'lgan degan argument bor. Agar biz tilning tarixi va evolyutsiyasi haqida fikr yuritmoqchi bo'lsak, uni ilmiy jihatdan o'rghanishimiz kerak. Ommaviy axborot vositalari yoshlar hayotidagi katta ta'sirga ega kuchdir. Musiqa, televizor, video o'yinlar, jurnallar va boshqa ommaviy axborot vositalari dunyoni qanday ko'rishimizga kuchli ta'sir ko'rsatadi, bu ta'sir ko'pincha bolalik davridan boshlanadi.{5.6} Ommaviy axborot vositalarini iste'molchilar tanqidiy tahlil qila olishlari uchun ularda media savodxonlik ko'nikmalari va odatlarini bolalikdan rivojlantirish kerak bo'ladi. Bu ko'nikmalarga ommaviy axborot vositalariga bazaviy darajada kirish, uni muayyan tushunchalar asosida tanqidiy tahlil qilish, shu tahlil asosida baholash va nihoyat, ommaviy axborot vositalarini o'zi ishlab chiqarish kiradi. Media savodxonligi ko'nikmalarini o'rghanishning ushbu jarayoni media ta'lim deb ataladi. UNESCO tashkiloti tomonidan XXI asrda media ta'limni targ'ib qilish madaniy-ma'rifiy rivojlanishning ustuvor yo'nalishi sifatida e'tirof etildi hamda aynan shu yo'l bilan media savodxonlikni oshirish mumkinligi takidlandi. UNESCO odamlarning tanqidiy fikrlash va to'g'ri qaror qabul qilish darajasini yaxshilash uchun ommaviy axborot vositalari va media savodxonlikni rivojlantirishni qo'llab quvvatlaydi.

Xulosa. Oila bu-mustahkam qo'rqondir. Oiladagi muhitda farzandlarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash uchun ishonchli mediasavodxonlik tushunchalarini tushuntirish poydevor hisoblanadi. Ushbu mediasavodxonlik tushunchasini nafaqat uyda balki maktab dasturiga kiritib, haftada 1-soat "Mediasavodxonlik" darslikni joriy etsilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki farzandlarimiz uchun oila 1-dargohi bo'lsa, 2-dargoh maktabdir...

Oila muhitda esa farzandlarimizda mediasavodxonlik ko'nikmalarni rivojlantirishda esa quyidalarni tavsiya qilgan bo'lardim: demak,

-oila davrasida o'tirganda vahimali axborotlarni ko'rmaslik.

-oila davrasida farzandlarimiz yoshiga mos bo'lмаган musiqalarni tinglamaslik.

- farzandlar oldida telefonda instgram, youtube, tik tokdagi ishonchsiz videolarni ko'rmaslik.

- Farzandlarining telefonlarini doimo nazorat qilib turishlik

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Shavkat Mirziyoyev: yoshlar tarbiyasi – eng muhim masalalardan 16.06.2017 nutqi.

2. Abu Nasr Forobi. Fozil odamlar shahri. – T.: Xalq merosi, 1993. – B. 159.

3. OILA PEDAGOGIKASI. O.Hasanboyeva, D.Xoliqov, Rocc Kemibell, Sh.K.Toshpo'latova, M.Sh.Nurmatova, X.JJabborova, NJamilova, Sh.Egamnazarova, N.Qayumova, M.M.Pirmuhamedova, L.A.Kulay, Sh.Sodiqova, B.Xojimurodova, M.A.Rasulxo'jayeva, R.Avezova. Toshkent – 2007. 358.b

4. MEDIASAVODXONLIK VA AXBOROT MADANIYATI. B.S.Abdullayeva, Y.Z.Ro'ziyev, K.V.Ismoilova. Darslik. Toshkent-2024. 260.b

5. https://uz.wikipedia.org/wiki/Jaloliddin_Davoniy